

Loyixa-smeta xujjalari tayyorlash ishlari bajarish uchun

0/Ch 55/22-sonli Sh A R T N O M A

Farg'ona sh.

“01” 11 2022 yil

Bundan buyon “Buyurtmachi” deb ataluvchi “Farg’ona mintaqaviy yo’llarga buyurtmachi xizmati” DUK nomidan Nizom asosida ish yurituvchi direktor Sh.Po’latov birinchi tomondan va ikkinchi tomondan “Bajaruvchi” deb ataluvchi “Loyiha Geodeziya” MCHJ direktori D.Nurmatov orqali Farg’ona viloyati tuman (shahar) kesimida “Tashabbusli byudjet” loyihasining 2-mavsumi natijalariga asosan jamoatchlik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha tavsiyaviy manzilli ro'yxatga asosan quyidagi shartnomani tuzdilar: Lot № 22110012166255

1. Shartnoma predmeti

1.1. “Buyurtmachi” tanlov hayati yig’ilishining 27.10.2022 yildagi № 166255-sonli bayoniga asosan Farg’ona viloyati Furqat tumani Shunqor MFY “Tashabbusli byudjet” loyihasining 2-mavsumi natijalariga asosan joriy ta’mirlash ishlari uchun loyixa-smeta hujjalari ishlab chiqish ishlari topshiradi, “Bajaruvchi” esa o’z zimmasiga oladi.

2. Shartnoma bahosi va to’lovlar qoidalari

2.1. Ishlarni amalga oshirishning shartnoma baxosi QQSSiz 11980000 (O’n bir million to’qqiz yuz sakson ming) so’mni tashkil qiladi.

2.2. “Buyurtmachi” 10 (o’n) bank kuni ichida shartnoma bahosining 30% miqdorida avans to’lovini amalga oshiradi.

2.3. Ishlar qiymatini ko’paytirishga yengib bo’lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo’lganda yoki ishlar hajmi “Buyurtmachi” tomonidan o’zgartirilganda shartnoma bahosi o’zgartirilishi mumkin.

3. Tomonlar majburiyatlari

3.1. “Bajaruvchi” ishlarni shartnoma gaznachilik boshkarmasidan ruyxatdan utgandan sung 10 kun muddatda bajarishni o’z zimmasiga oladi.

3.2. “Bajaruvchi” loyiha smeta hujjalari qayta hisoblangandan so’ng loyiha hujjalari ekspertizadan o’tkazishda ishtirok etishni o’z zimmasiga oladi.

3.3. “Buyurtmachi” ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan birlamchi ma’lumotlar va materiallarni “Bajaruvchi”ning so’rovi asosida taqdim qilishi shart.

3.4. “Buyurtmachi” shartnomada ko’zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to’lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko’rsatilgan hajm va shartlarga muvofiq bajarilishi “Buyurtmachi” tomonidan bajarilishi zarur bo’lgan ishlarni bajarish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko’zda tutilgan maqsadlarda foydalananishi o’z zimmasiga oladi.

“Buyurtmachi” tomonidan avans to’lov o’z vaqtida o’tqazilmagan holda yoki ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan birlamchi ma’lumotlar va materiallarni “Bajaruvchi”ning talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to’lovi va ma’lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

4.1. Ishlar tugagandan so’ng “Bajaruvchi” “Buyurtmachi”ga ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

4.2. “Buyurtmachi” ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasiini olgandan so’ng 10 kun mobaynida ishlarni qabul qilish va “Bajaruvchi”ga imzolangan topshirish va qabul qilish dalolatnomasini yoki ishlarni qabul qilmaslikning asoslangan rad javobini yuborishni o’z zimmasiga oladi.

Agar “Buyurtmachi” ishlarni qabul qilgan kundan boshlab 10 kun muddat ichida “Bajaruvchi”ga kamchiliklar ko’rsatilgan ishlarni qabul qilmaslik rad javobini yubormasa, ishlarni qabul qilingan hisoblanadi va bunday holatda “Buyurtmachi” ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolab, bir nusxasini “Bajaruvchi”ga qaytarishi shart.

4.3. “Buyurtmachi” ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan holda zarur bo’lgan qo’shimcha ishlarning ro’yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko’rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnomasi tuziladi.

4.4. Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to’xtatish to’g’risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to’g’risidagi masalani ko’rib chiqishi shart. Ishlarning to’xtatilishi tomonlar uchun O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko’zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

4.5. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko’zda tutilgan ishlarni to’xtatish to’g’risida yozma xabar bergan vaqt o’zaro hisob-kitob qilish vaqtini hisoblanadi.

4.6. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

5. Konfidensial ma’lumotlarni himoyalash

5.1. Ishlar bajarilishi davrida “Bajaruvchi” o’zi konfidensial hisoblanadigan ma’lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni “Buyurtmachi” dan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo’lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko’radi.

6. Qo'shimcha shartlar

6.1. "Bajaruvchi" ishlarni muddatidan oldin bajargan holda, "Buyurtmachi" uni mazkur shartnomaning 4-moddasiga asosan qabul qiladi va to'la to'lovni amalga oshiradi.

6.2. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

6.3. "Bajaruvchi" mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, "Buyurtmachi"ni xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jalb qilish huquqiga ega.

Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlari va "Bajaruvchi"ning ob'ekt bo'yicha bajargan ishlariga nisbatan qo'llaniladi.

6.4. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi.

Kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Iqtisodiy sudda e'tiroz tartibiga rivoj qilgan holda ko'rib chiqiladi. E'tirozlar yozma ravishda taqdim qilinishi kerak va ularni ko'rib chiqish muddati e'tiroz bildirilgan tomon olganidan keyin 1 (bir) oy muddatni tashkil etadi. Mazkur shartnoma bo'yicha nizo kelib chiqqan xollarda qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

6.5. "Buyurtmachi" tomonidan dastlabki to'lov va "Bajaruvchi" tomonidan ishlar topshirilganda shartlashilgan xaqi kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,2 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi shartnoma bahosining 30 (o'ttiz) foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lash "Buyurtmachi"ni to'loving kechikishi yoki xizmatlar, ishlarning asossiz qabul qilinmaganligi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

6.6 Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

6.7. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanganidan so'ng Viloyat G'aznachilik Boshqarmasi (bo'limi)da belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tganidan keyin qonuniy kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

7. Tomonlarning manzili va hisob raqamlari

«BUYuRTMACHIB»

"Farg'ona mintakaviy yullarga buyurtmachi
xizmati" davlat unitar korxonasi
Manzil: Farg'ona sh. Aeroport ko'chasi 1-uy
ShHR: 401722860302387045204118004

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi
G'aznachiligi
x/r: 23 402 000 300 100 001 010
MFO: 00014, INN: 201 122 919
Bank: XKKM MB Toshkent shaxri Bosh
boshqarmasi

Direktor  Sh. Po'latov

Xuquqshunos 

«BAJARUVChI»

"LOYIHA GEODEZIYA" MCHJ
Qo'qon shahar, A.T. Ho'qandiy 46B/1
h/r 20208000005412685001
Infin bank qo'qon shahar filiali
Mfo 01116 inn 308651861
Okonx 41100
Tel +99893-001-45-00

Direktor  D. Nurmamatov